Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minl...

3. https://daryo.uz/2025/01/28/toshkent-havosi-iflos-shaharlar-reytingida-1-oringa-chiqdi
4. https://www.iqair.com/ru/world-air-quality-ranking
5. https://www.gazeta.uz/oz/2024/11/20/yil/
6. https://www.nano-lab.com.tr/uz/blog/detail/atrofiya-muhitning-ifloslanishi-1246
7. https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_1569.pdf

“O‘ZBEKISTONDA BANKLAR FAOLIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI”

Abdaminova Pokizaxon Tavakkal qizi
Toshkent Davlat iqtisodiyot Universiteti
III-bosqich MMT 60/22-guruh talabasi
Ilmiy rahbar:Umarova Gulzodaxon Qodirbekovna
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Unvirsiteti
“Mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar” kafedrasi o’qituvchisi.

Annotatsiya*: Ushbu maqolada O‘zbekistonda banklarning faoliyatini yanada rivojlantirish istiqbollari va tijorat banklarining istiqbollari O‘zbekiston Respublikasiga qanchalik muhim hamda davlatimiz rivojlanishiga qanchali hissa qo’shishi yortib o’tilgan.*

Kalit so‘zlar*: Tijorat banklari, markaziy bank, blokcheyn, IT, AI(Artifical intellegent), mobil ilova, moliyaviy nazorat.*

Bank deb, pul mablag‘larini yig‘uvchi, saqlab beruvchi, kredit- hisob va boshqa har xil vositachilik operatsiyalarini bajaruvchi muassasaga aytiladi. Banklar paydo bo'lishining asosi tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi hisoblanadi. Bank italyancha “banca” so‘zidan olingan bo‘lib, “stol”, aniqrog‘i, “pulli stol” ma’nosini anglatadi. O‘rta asrlarda italiyalik puldorlar hamyonlaridagi, idishlardagi monetalarni stol ustiga qo‘yib hisob-kitob qilishgan.

Bank tizimi mustaqillik erishganimizdan so‘ng mamlakatimizda ham rivojlanib kelmoqda. Mamlakatimizda bank tizimi 2 ga bo‘linadi. Markaziy bank va tijorat banklari. Hozirgi kunda mamlakatimizda markaziy bank va 36 ta tijorat banklari o‘z faoliyatini olib boradi.

Published: 24.05.2025
Cite this article: Abdaminova Pokizaxon Tavakkal qizi, Umarova Gulzodaxon Qodirbekovna (2025). O‘zbekistonda banklar faoliyatini yanada rivojlantirish istiqbollari. Emro Science and Education, 2(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/362
© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Markaziy bank –mamlakatning pul belgilarini emmisiya qilish (pul bosib chiqarish) va tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish huquqi berilgan bosh davlat banki. Markaziy bank “banklarning banki” bo‘lib, pul muomalasini tartibga solishda va byudjetni boshqarishda davlatga va hukumatga yordam beradigan organ hisoblanadi. Pul emissiyasini amalga oshirish, davlatning oltin-valyuta zaxiralarini saqlash, bank tizimini kreditlash, hukumat va tijorat banklarining hisoblarini olib borish, pul muomalasini tartibga solish, kredit muassasalarini nazorat qilish Markaziy bankning asosiy vazifasiga kiradi.

Tijorat banki - korxonalar, tashkilotlar, fuqarolarga universal bank xizmatlari (hisob-kitob, to‘lov operatsiyalari, qo‘yilmalarni jalb etish, omonatlarni saqlash, ssudalar berish, shuningdek, qimmatli qog‘ozlar bozoridagi operatsiyalar) ko‘rsatadigan yirik kredit muassasasi. Tijorat banki bank harakatlarini amalga oshirish uchun pul mablag‘larini, asosan, qo‘yilmalar (omonatlar), banklararo kreditlar, o‘z aksiya va obligatsiyalarini chiqarish hisobiga shakllantiradi.

O‘zbekistonda Markaziy bank Tijorat banki faoliyati uchun litsenziya beradi va uning ishini nazorat qiladi. Tijorat banklari mulkchilikning turli shakllari asosida - davlat ishtirokidagi, davlat aksiyadorlik, ochiq va yopiq aksiyadorlik jamiyatlari tarzida tashkil etilgan.

Mamlakatimizda tijorat banklarining faoliyatini rivojlantirish maqsadi hozirgi kundan qator qonunlar va hujjatlar qabul qilinmoqda. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi o‘zbekiston respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish” kiritilib qator yangiliklar amaliyotga joriy etilmoqda. Bu bilan malakatimizdagi banklar faoliyati yanada yaxshilash hamda aholiga qulaylik yaratib beruvchi tizimlarni joriy etilishi mamlakatimizning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shu sababli biz ham mamlakatimizdagi banklarning faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida bir qancha takliflarni berib o‘tmoqchimiz.

Mijozlarga qulaylik yaratish: Mijozlar uchun qulaylik va sodiqligi oshirish uchun joylarda smart offiselarning faoliyatini ko’paytirish, tijorat banklariga muammo bilan borgan aholini murojaatlarini o’rganish uchun hodimlar sonini kengaytirish va qator navbatlarni kamaytirish. Bundan tashqari mobil ilovalarni yaxshilash, aholi orasida ilovalardan to’g’ri foydalanish maqsadida qator targ’ibotlarni ko’paytirish hamda mijozlarga xorijiy valyuta operatsiyalarini bajarish imkoniyatlarini kengaytirish va eng muhim pul o’tkazmalaridagi foizlar limitini ko’paytirish.

Tizim faoliyatini kengaytirish: Banklar tizimining taraqqiyotga ega bo'lishi uchun IT mutahasislari hamda AI blokcheynidan unimli foydalanib bankning ma’lum bir sohalariga sun’iy intellektni joriy etish va infratuzilma yangilanishi muhimdir.

Yangi texnologiyalardan, masalan, blockchain yoki islohotlardan foydalanishni qo'llab-quvvatlash lozim.

Huquqiy va regulyativ tizimni mustahkamlash: Huquqiy va regulyativ tizimning banklar sohasidagi yangilanishlarga mos ravishda rivojlantirilishi lozim. Bu, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va investorlar uchun ishonchli muhit yaratishga yordam beradi. Bu orqali banklarning bankrot e’lon qilinish extimolligi kamayadi.

Kadrlar salmog’ini kengaytirish: O'zbekiston bozorining maxsus xususiyatlarini hisobga olgan holda, banklar sektoriga oid talablarni va kadrni rivojlantirish lozim. Bu, turli sohalar uchun mutaxassislar bilan xilma-xil tashkil etishni, shuningdek, moliyaviy va texnologik bilimlarni ko'paytirishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.Malikov Moliya nazariy asoslar o‘quv qo’llanma T. 2020-yil.
2. A. Omonov T. Qoraliyev Pul va banklar o‘quv qo’llanma darslik. T. 2018-yil.
3. lex.uz milliy qonunchilik ba’zasi.
4. openbyudjet.uz davlat ochiq ma’lumotlar ba’zasi.
5. stat.uz statistika agentligi.
6. https://uz.wikipedia.org/wiki

ISLOM MOLIYA TIZIMINING O’ZBEKISTON BANK TIZIMIGA INTERIGATSIYALASHUVINING AYRIM JIHATLARI.

Suyarov Zokirjon Ergashevich
TDIU Andijon fakulteti
“Mutaxassislik,ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar”
kafedrasi katta o‘qituvchisi
Muhammadaliyev Xusniddin Ahliddin o`g`li
TDIU Andijon fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada islom banki tizimining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va hozirgi jarayonlari tahlil qilingan. Islom bankining tamoyillari, ya’ni ribo (foiz)ga asoslanmagan moliyalashtirish, sheriklik asosidagi investitsiyalar va adolat tamoyillarining iqtisodiy ahamiyati batafsil yoritilgan. Shuningdek, uning zamonaviy moliyaviy bozorlar va global iqtisodiyotdagi o‘rni ham ko‘rib chiqilgan. Maqolada islom banklarining asosiy modellariga, jumladan, mudaraba, mushoraka, ijara va murabaha kabi moliyaviy vositalarga e’tibor qaratilgan. Hozirgi vaqtda islom banklari nafaqat musulmon mamlakatlarida, balki boshqa mintaqalarda ham keng ommalashib